

**EKOLOGIK MUAMMOLAR VA DAVLATNING
EKOLOGIK SIYOSATI**

Mamatqulov Sardor Baxtiyor o'g'li
O'zbekiston Milliy universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti
Siyosatshunoslik yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada bugungi kunda global miqyosda dolzarb muammoga aylanib borayotgan ekologik xavflar, O'zbekistondagi ekologik muammolarning oshib borishi, ularning insoniyatga ta'siri, mamlakatda yuritilayotgan ekologik siyosat muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Ekologik muammolar, JSST, ekologik siyosat, yashil belbog'.

I. Dolzarb ekologik muammolar.

Ekologik muammolar – bugun hukumatlar, xalqaro tashkilotlar, jamoatchilik tashkilotlari umuman insoniyat to'qnash kelib turgan global miqyosdagi muammolardan biri hisoblanadi. Xo'sh bugun dunyoda, O'zbekistonda ekologik vaziyat qanday? Davlatlar qanday ekologik muammolarga qanday bartaraf etmoqda? Faol jamoatchilik qanday takliflar bermoqda? Ana shunday savollar maqolamizning mazmunini ochib berishga harakat qilamiz. Tashqi havoning ifloslanishi past, o'rta va yuqori daromadli mamlakatlardagi har bir kishiga ta'sir qiladigan asosiy sog'liq muammosidir. 2019-yilda shahar va qishloq joylarida atrof-muhit (tashqi) havoning ifloslanishi dunyo bo'ylab yiliga 4,2 million erta o'limga sabab bo'lishi taxmin qilingan; bu o'lim yurak-qon tomir va nafas olish kasalliklari va saraton kasalliklarini keltirib chiqaradigan mayda zarrachalar sabab bo'ladi. JSST hisob-kitoblariga ko'ra, 2019-yilda tashqi havo ifloslanishi bilan bog'liq erta o'limlarning qariyb 37% yurak ishemik kasalligi va insult, o'limning 18% va 23% surunkali obstruktiv o'pka kasalligi va o'tkir pastki nafas yo'llarining infeksiyalari va 11% o'limlar nafas yo'llarining saratoni tufayli sodir bo'lgan.

Past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashovchi odamlar nomutanosib ravishda tashqi havoning ifloslanishi yukini boshdan kechirmoqda, 89% (4,2 million erta o'lim) ushbu hududlarda sodir bo'ladi. Havoning ifloslanishi tamaki chekishdan keyin yuqumli bo'lmagan kasalliklardan (NCD) o'limning ikkinchi asosiy sababidir. Atmosfera ifloslanishiga qarshi kurashish inson salomatligi, iqlim o'zgarishi, energetika sektori va rivojlanish ustuvorliklari o'rtasidagi sinergiyaga asoslangan ko'p tarmoqli sa'y-harakatlarni talab qiladi. 2018-yilda JSST Shveysariyaning Jeneva shahridagi JSST shtab-kvartirasida milliy va shahar hukumatlari, hukumatlararo

tashkilotlar, fuqarolik jamiyati, xayriya, tadqiqot va ilmiy doiralardan 900 dan ortiq ishtirokchilarni qamrab olgan havoning ifloslanishi va salomatlik bo'yicha birinchi konferentsiyani o'tkazdi. Muassasalar va hukumatlar tomonidan aholi salomatligi uchun havo ifloslanishiga qarshi kurashish bo'yicha 70 dan ortiq majburiyatlar qabul qilindi.

II. O'zbekistondagi ekologik vaziyat va ekologik siyosat.

Yanvar oyi mobaynida Toshkent shahrida havo ifloslanishi ortdi, xususan havo tarkibida pm 2,5 moddasi me'yoridan ortib ketdi. IQair tashkilotining eng iflos shaharlar ro'yxatida yuqori o'rinlaridan tushmadi. Bu albatta achinarli holat. Joriy yilning 23–31-yanvar kunlari Ekologiya vazirligi tomonidan Toshkent viloyati, Qibray tumani, Salar shaharchasida joylashgan “**Toshkent IES**” (**issiqlik elektr stansiyasi**) faoliyati tekshirilganda korxonada gaz asosiy yoqilg'i hisoblangani, shuningdek, qo'shimcha yoqilg'i sifatda **mazutdan foydalanilayotganligi** aniqlangan. Shu sababli Toshkent shahri havosini tutun qoplagan. Albatta bunga tegishli choralar ko'rilganini qayd etish joiz.

O'zbekistonda og'ir ekologik vaziyat, Toshkent shahrida ifloslanishning ortishi, daraxtlar kesilishining ko'payishi ortidan hukumat davlatning yangi ekologik siyosatini ishlab chiqishi dolzarb vazifaga aylanayotgan edi. Xususan 29-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti **Shavkat Mirziyoyev** raisligida uy-joy, qurilish, kommunal xo'jaligi, transport va ekologiya sohaslarida amalga oshirilgan ishlar va ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazildi. Yig'ilishda ekologiya sohasidagi dolzarb masalalar ham tahlil qilindi. Yig'ilishda hududlardagi ayrim korxonalarda haligacha 10 yildan ortiq ishlatilayotgan chang-gaz tozalash uskunalari mavjudligi, sanoat korxonalariga “oyoqqa turishi” uchun ko'plab yengillik va imtiyozlar berilgan bo'lsa-da, ayrimlari atrof-muhitni himoya qilish haqida o'ylab ham ko'rmayotgani, aksariyat hollarda qurilish obyektlari va loyihalari ekologik ekspertizadan o'tkazilmasdan amalga oshirilayotgani ta'kidlandi. Ma'lumot uchun, 2020-yildan buyon hududlarda **22 mingta** yangi sanoat korxonasi ishga tushdi, bu davrda qariyb **250 mingta** yangi uy-joylar qurildi. Bugungi kunda sanoat korxonalarini va avtomobillardan atmosferaga yiliga **2 million tonnadan** ziyod ifloslantiruvchi moddalar chiqmoqda. Ayniqsa, poytaxtda, Olmaliq, Nurafshon, Ohangaron, Angren, Bekobod va Quvasoy shaharlarida havodagi ifloslantiruvchi moddalar miqdori boshqa hududlarga nisbatan ancha ko'p. Davlatimiz rahbari tomonidan yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda ekologik vaziyatni yaxshilash borasida qator topshiriqlar berildi. Jumladan:

— 1-apreldan boshlab har bir hududning havo, suv va atrof muhitni ifloslanish darajasiga qarab tuziladigan reytingi joriy qilinadi;

— joylarda ekologik vaziyatni yaxshilash bo'yicha har bir tuman va shaharning “master-reja”si ishlab chiqiladi;

— yil yakunida hudud va tarmoqlarning ekologik reytingi va ekologik pasporti e'lon qilib boriladi. Hokimlar aholini natijalardan xabardor qilib boradi;

— Toshkent va Nukus shaharlari, viloyat markazlari hamda sanoatlashgan 20 ta tumanda avtomatik havo monitoringi stansiyalari o'rnatiladi;

— yil yakuniga qadar 112 ta yirik sanoat korxonasi va barcha sement ishlab chiqaruvchilarda zamonaviy chang-gaz tozalash uskunalari o'rnatilib, eskilari almashtiriladi. Shuningdek, havoga chang tashlash darajasi yuqori bo'lgan korxonalarda filtrlar yangilanadi.

Bundan tashqari, **“yashil belbog”lar yaratishga alohida e'tibor qaratiladi.** Xususan:

— yirik qurilish materiallari, energetika, metallurgiya korxonalari tomonidan 5 gektardan “yashil belbog” yaratilib, jami 10 million tup daraxt ekiladi;

— qurilish korxonalari ham ijtimoiy mas'uliyatni his qilgan holda, Toshkentda “yashil belbog'lar” tashkil qiladi;

— “noqonuniy kesilgan har bir daraxt o'rniga 100 ta ko'chat ekish” tizimi joriy qilinadi;

— Ohangarondagi 23 gektar va Yangiyo'ldagi 37 gektarda joylashgan sobiq chiqindi poligonlari hududida “yashil bog'lar” tashkil qilish boshlanadi;

— kelgusi besh yil davomida Toshkent shahri va unga tutash Toshkent viloyati tumanlarini to'liq yashillik bilan qoplashni nazarda tutuvchi kamida 3 ming gektar “yashil belbog” va 200 gektar “yashil bog'lar” tashkil qilinadi.

Shu bilan birga, suvga zararli tashlanmalarni oqizayotgan va o'zidan zararli chiqindilarni ko'p chiqarayotgan korxonalar bilan ishlash bo'yicha alohida dastur amalga oshiriladi.

Qolaversa, **atmosfera havosiga tashlanmalar tashlanishining oldini olish maqsadida:**

— Poytaxt ko'chalarida atmosfera havosining sifat ko'rsatkichini doimiy e'lon qilib boradigan tablo va monitorlar o'rnatiladi;

— Poytaxtda og'ir yuk mashinalari, 10 yildan oshgan avtomobillar hamda “Yevro-4”dan past yonilg'idan foydalanishning ekologiyaga ta'sirini kamaytirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqiladi;

—2025-yildan Ai-80 markali benzindan voz kechish masalasi uzil-kesil hal qilinadi.

Ta'kidlash joizki, Davlatimiz rahbarining Xitoyga tashrifi davomida Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati bilan atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim [imzolandi](#). Eng muhim natijalardan biri elektromobillar ishlab chiqarishni **500 mingtaga** yetkazish borasida kelishuvga erishilgani bo'ldi.

Yig'ilishda yo'llardagi tirbandliklar ham havoning tozaligiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani ta'kidlandi. Shu sababli jamoat transportini rivojlantirish borasidagi

ishlar yanada jadallashtirilishi belgilab olindi. Xususan, endilikda avtobuslar xarid qilishda ularning yo'lovchi sig'imiga ko'proq e'tibor qaratish, metro vagonlari sonini oshirish bo'yicha amaliy choralarni tezlashtirish lozimligi qayd etildi. Shuningdek, "Yashil energetika"ni qo'llab-quvvatlash, ekologik muammolarning oldini olish va zararli oqibatlarni kamaytirish maqsadida aholining elektromobillarga o'tishini rag'batlantirish tizimi joriy qilinadi.

Ayni damda respublikamizdagi barcha daraxtlar raqamlashtirilib, xatlovdan o'tkazilmoqda. Toshkent shahrida esa sinov tariqasida daraxtlar pasportlashtiriladi. Bu O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 23-noyabrdagi **"Respublikada yashillik darajasini yanada oshirish, "Yashil makon" umummilliy loyhasini izchil amalga oshirish orqali ekologik barqarorlikni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 199-son Farmonga ko'ra amalga oshirilmoqda.

Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi takliflari asosida tayyorlangan **"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"**gi Qonun Oliy Majlis Senatining 49-yalpi majlisida ko'rib chiqildi va ma'qullandi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holat sifatini oshirish bo'yicha tizimli ishlar olib borilmoqda. Biroq qurilish, ishlab chiqarish va urbanizatsiya ko'lamining kengayishi tabiatga chiqariladigan tashlamalarning keskin ortishiga sabab bo'lmoqda. Bu esa tabiiy muhitning me'yorida ortiq darajada ifloslanishi oldini olish maqsadida tabiatga zararli ta'sir ko'rsatayotgan obyektlar faoliyatini cheklash yoki to'xtatish mezonlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda hududlarda, ayniqsa, shaharlarda ayrim sanoat korxonalari tomonidan tashlanmalarning atmosfera hamda suvga me'yordan bir necha bor yuqori miqdorda tashlanishi fuqarolarning turmush tarzi, hayoti va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Misol uchun, sanoatning asosiy tarmoqlari hisoblangan energetika, neft va gaz, kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari kabi tarmoqlarda bu jarayon doimiy tarzda monitoring qilinadi.

Monitoring kuzatuv natijalariga ko'ra oxirgi bir yil davomida 284 tashkilotning 552 ta ifloslantirish manbasida ifloslantirish darajasi belgilangan me'yordan ortgani aniqlangan. Jumladan, atmosfera havosiga tashlama tashlaydigan 77 tashkilotning 152 ta manbasida, suv havzalariga oqava suvlarini tashlaydigan 169 tashkilotning 323 ta manbasida, tuproqlarni ifloslantiruvchi 38 tashkilotning 77 ta manbasida ifloslantirish darajasi belgilangan me'yordan ortgan. Shuningdek, 98 tashkilotning 269 ta manbasida ifloslantirish darajasi doimiy tarzda me'yordan ortganligi aniqlangan. Bu esa atrof-muhit holatining yomonlashishiga, fuqarolar hayotiga salbiy ta'sir qilishiga, shuningdek, aholining haqli e'tirozlariga sabab bo'lmoqda.

Yuqoridagi sabab va omillarni inobatga olib, **“Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risida”gi, “Atmosfera havosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi** hamda **“Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi** O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga o‘zgartirishlar kiritilmoqda. Bu o‘zgartirishlar korxonalar, tashkilotlar, inshootlar va boshqa obyektlarning ekologiyani me‘yoridan ortiq ifloslantiruvchi manbalarini o‘n ish kunidan ortiq bo‘lmagan muddatga cheklash, to‘xtatib turishni nazarda tutadi. Maqsad ekologiyaning me‘yoridan ortiq ifloslanishi hamda aholining hayoti va sog‘lig‘iga xavf yuzaga kelishining oldini olishdir.

30-yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida navbatdagi parlament eshituvi bo‘lib o‘tdi. Unda Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vaziri **Aziz Abduhakimov** Toshkent shahrida atmosfera havosi ifloslanishining sabablari, ko‘rilayotgan chora-tadbirlar haqida axboroti eshtildi. Bu ham parlamentning o‘rni va roli oshib borayotgandan darak beradi. Shuningdek, vazir ekologik vaziyatni yaxshilash borasida quyidagi kechiktirib bo‘lmas chora-tadbirlarni amalga oshirish lozimligini qayd etdi:

- “Yevro-4” standartidan (AI-80 rusumli benzin) past ekologik toifadagi motor yoqilg‘idan foydalanishni taqiqlash;
- Tirbandlikni kamaytirish va harakat xavfsizligini ta‘minlash maqsadida Toshkent shahrida kunning tig‘iz vaqtlarida (ertalabki soat 07:00 dan 10:00 ga qadar va 17:00 dan 20:00 ga qadar) yuk tashish uchun mo‘ljallangan, vazni 3,5 va 12 tonnadan ortiq transport vositalarining harakatini cheklash;
- Shaharning diqqatga sazovor markaziy ko‘chalarida avtotransport vositalaridan xoli hududlarni tashkil etish;
- Jamoat transportini to‘liq elektr va gaz yoqilg‘isiga o‘tkazish, shuningdek, yo‘l infratuzilmasini tashkil etish;
- Barcha turdagi qurilish obyektlarini (ijtimoiy va davlat ahamiyatiga oid obyektlar bundan mustasno) qurishga moratoriy e‘lon qilish;
- Toshkent viloyatining Toshkent shahriga tutash tumanlarida sanoat maqsadlari ko‘mir yoqilg‘isidan foydalanishni taqiqlash;
- Issiqlik markazlarida zaxira yoqilg‘isi sifatida mazutdan foydalanishni keskin taqiqlash;
- Ilmiy va puxta ishlangan xulosalar asosida shamol tezligini pasaytirish, tuproq zarralari ko‘chishini oldini olishga qaratilgan Toshkent shahri atrofida “yashil belbog‘”lar barpo etish.

Bundan tashqari, O‘zbekistonda Markaziy Osiyo atrof-muhit va iqlim o‘zgarishini o‘rganish universiteti (**"Green University"**) ni tashkil etilgani davlat ekologik siyosatining maqtovga arzirli holatdir.

III. Yechimlar

Ekologik muammolar insoniyat oldidagi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Mamalakatimizda ekologik vaziyatni yumshatishga qaratilgan chora-tadbirlar boshlab yuborildi. Shu o'rinda quyidagi sohalarda ekologik reformalarni qo'llashni joiz deb bildim.

Transport: Kuchli jamoat transporti tizimlari shaharlarimizni “ko‘rkam”, energiya tejamkor va yashashga yaroqli qilishning asosidir. Asosan avtomobil sayohati atrofida qurilgan shaharlar tezda kengayib, avtomobil yo'llari va to'xtash joylaridagi yerlarni egallab oladi, ko'proq ifloslanishni keltirib chiqaradi va nosog'lom turmush tarzini rivojlantiradi. Velosipedda yurish va ommaviy transportni rivojlanirish piyodalar va velosipedlar uchun qulay shaharlar qatnovni xavfsizroq, osonroq, sog'lomroq va arzonroq qiladi. Piyoda va velosipedda yurish tarmoqlari piyoda yoki velosipedda sayohatlarni xavfsizroq va qulayroq qiladi, transport vositalarining ifloslanishini, yo'l-transport jarohatlarini oldini oladi va jismoniy faollik orqali salomatlikni mustahkamlaydi. Odamlarni transportning yanada samarali shakllariga, jumladan, avtobus tezkor tranziti, yengil temir yo'l va umumiy transportning boshqa shakllariga o'tkazish shaxsiy transport vositalaridan foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali havo ifloslanishini keskin kamaytiradi.

Chiqindini qayta ishlash: Dunyodagi metan chiqindilarining 11% chiqindixonaga to'g'ri keladi va 2025-yilga borib shahar chiqindilari qariyb ikki baravar ko'payishi kutilmoqda. Bundan tashqari, rivojlanayotgan mamlakatlardagi chiqindi suvlarning taxminan 90% tozalanmagan yoki qisman tozalangan holda oqiziladi. Chiqindilarni boshqarishni yaxshilash dasturlari mahalliy va global miqyosda hamjamiyatlarimiz zarar ko'rmasligini ta'minlashning ajralmas qismidir. Chiqindilarni qayta ishlashning innovatsion usullarini joriy etish lozim.

Ekologik uylar: Ekologik toza uylarni barpo etishni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda nostandart pechlar va turli yonilg'ilar ham havoni ifloslantirmoqda ham o'lim darajasini oshirmoqda. O'tin, ko'mir va kerosinni kuydiruvchi pechlar atrofida soatlab o'tiradigan asosan ayollar va bolalar hisoblanadi. Qayta tiklanadigan energiya ta'minoti va yashil energiya tizimini yanada rivojlantirish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Siyosiy texnologiyalar, R. Jumayev, Sh. Yovqochev;
2. Политические технологии и их применение, Александр Гугнин
Татьяна Гугнина;
3. The technologies of politics, Kristin Asdal;
4. www.polittechnolog.ru (<https://www.polittechnolog.ru/polittechnologii-top-10>).